# Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
*(2021- yil yanvar-aprel)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3816,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 110,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,9 %) ni tashkil etdi.







***B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 12,6 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 4,9 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 22,8 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -43,1 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

*( yil boshidan I- IV oylar, % da )*

2020- yil, % da




2021- yil, % da




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Shag‘al , ming t.** | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3201,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 112,6 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2020- yilning yanvar-aprel oylarida - 2,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 5,9 % (5,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 10,6 % (8,9 %) va quyi texnologiyalisi - 65,9 % (66,9 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 40,7 % (2020-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,6 % (2020-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,4 % (2020-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 75,6 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,5 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 69,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,9 % (2020-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 %) ni tashkil etdi.

## **Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**, *% da*

2021- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 27,0 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,5 martaga o‘sgan), 43,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (2,8 %) ishlab chiqarilib yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming tonna | 10,9 | 27,0 | 16,1 |
| **Aroq** – ming litr 100 % spirt | 133,3 | 0 | -133,3 |
| **Vino,** ming litr | 236,1 | 0 | -236,1 |
| **Un,** ming tonna | 41,9 | 43,1 | 3,5 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** ming tonna | 8,0 | 4,7 | -3,3 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 565,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (14,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,9 % ga oshganligi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan II- IV oylar, % da )*






## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** mln.kVt/s | 1456,4 | 2276,5 | 820,1 |
| **Issiqlik energiyasi,** ming gkal | 43,8 | 34,4 | -9,7 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,8 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
*( yil boshidan I- III oylar, % da )*

2020- yil % da

2021- yil % da







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar,** mlrd.so'm | 14,0 | 24,6 | 10,6 |
| **Oqava suvlarni shlami,** mlrd.so'm | 1,5 | 3,9 | 2,4 |
| **Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar,** mlrd. so'm | 8,1 | 7,8 | -0,3 |
| **To'qimachilik chiqindilari,** tonna | 0,0 | 9,0 | 9,0 |
| **Xavfsiz metall chiqindilari,** ming.t | 0,0 | 0 | 0 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 53,7 % ga, oqava suvlarni shlami 2,6 martaga ortganligi, hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 3,6 % ga pasayganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1998,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 52,4 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 40,2 % ni, shuningdek, Namangan tumani 12,5 % ni, To‘raqo‘rg‘on tumani 8,8 % ni, Chust tumani 8,3 % ni, Kosonsoy tumani 7,5 % ni, Uchqo‘rg‘on tumani 5,3 % ni hamda Pop tumani  4,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (115,9 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Mingbuloq (3,2 marta), Chust (2,5 marta), Kosonsoy (134,7%), To‘raqo‘rg‘on (142,4 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 801,6 | 40,2 | 110,4 |
| To‘raqo‘rg‘on | 175,3 | 8,8 | 142,4 |
| Mingbuloq | 70,6 | 3,5 | 315,0 |
| Uychi | 68,9 | 3,3 | 107,9 |
| Kosonsoy | 149,5 | 7,5 | 134,7 |
| Uchqo‘rg‘on | 105,0 | 5,3 | 80,8 |
| Namangan | 250,4 | 12,5 | 87,0 |
| Chortoq | 48,9 | 2,4 | 111,3 |
| Norin | 23,6 | 1,2 | 105,3 |
| Chust | 165,6 | 8,3 | 247,9 |
| Pop | 81,3 | 4,1 | 106,0 |
| Yangiqo‘rg‘on | 57,9 | 2,9 | 113,7 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 35,4 % ni, shuningdek, To‘raqo‘rg‘on tumani 12,6 % ni, Chust tumani 11,1 % ni hamda Namangan tumani 13,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Mingbuloq (3,8 marta), Chust (3,0 marta), Kosonsoy (137,8 %) hamda To‘raqo‘rg‘on (149,4 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 451,8 | 35,4 | 104,9 |
| Mingbuloq | 57,3 | 4,5 | 380,0 |
| Kosonsoy | 134,5 | 10,5 | 137,8 |
| Namangan | 173,3 | 13,6 | 94,6 |
| Norin | 11,9 | 0,9 | 106,6 |
| Pop | 33,8 | 2,7 | 108,2 |
| To‘qaqo‘rg‘on | 161,1 | 12,6 | 149,4 |
| Uychi | 34,3 | 2,7 | 85,8 |
| Uchqo‘rg‘on | 34,0 | 2,7 | 81,3 |
| Chortoq | 16,2 | 1,3 | 85,9 |
| Chust | 142,3 | 11,1 | 299,0 |
| Yangiqo‘rg‘on | 25,9 | 2,0 | 85,1 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 48,5 % ni, shuningdek, Namangan  tumani 10,4 % ni, Uchqo‘rg‘on tumani esa 9,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Yangiqo‘rg‘on tumani (156,5 %), Mingbuloq tumani (181,7 %) hamda Chortoq tumanida (130,3 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 349,8 | 48,5 | 118,3 |
| Mingbuloq | 13,3 | 1,8 | 181,7 |
| Kosonsoy | 15,0 | 2,1 | 112,6 |
| Namangan | 77,1 | 10,7 | 73,7 |
| Norin | 11,7 | 1,6 | 103,9 |
| Pop | 47,5 | 6,6 | 104,5 |
| To‘qaqo‘rg‘on | 14,2 | 2,0 | 92,9 |
| Uychi | 34,6 | 4,8 | 122,1 |
| Uchqo‘rg‘on | 71,0 | 9,8 | 80,6 |
| Chortoq | 32,7 | 4,5 | 130,3 |
| Chust | 23,3 | 3,2 | 121,5 |
| Yangiqo‘rg‘on | 32,0 | 4,4 | 156,5 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1172,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*

**Viloyat**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 3 816,2 | 100,0 | 110,8 |

**Namangan sh**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1 409,1 | 36,9 | 104,3 |

**To‘raqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 664,1 | 17,4 | 122,9 |

**Mingbuloq**

| Млрд. сум | Ulushi % da | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| 189,5 | 5,0 | 110,4 |

**Uychi**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 235,0 | 6,2 | 101,2 |

**Kosonsoy**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 154,0 | 4,0 | 114,0 |

**Uchqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 256,6 | 6,7 | 85,8 |

**Namangan**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 339,6 | 8,9 | 94,8 |

**Chortoq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 54,2 | 1,4 | 108,0 |

**Norin**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 98,7 | 2,6 | 63,8 |

**Chust**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 235,5 | 6,2 | 119,4 |

**Pop**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 121,0 | 3,2 | 106,7 |

**Yangiqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 58,9 | 1,5 | 106,6 |

## Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida To‘raqo‘rg‘on (2020-yil yanvar-aprel oylariga

nisbatan 122,9 %), Chust (119,4 %), Kosonsoy (114,0 %), Chortoq (108,0 %) hamda Mingbuloq (110,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

| Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da* | Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da |
|---|---|




## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 36,9 % i) hamda To'raqo'rg'on (17,4 %), Namangan (8,9 %), Chust (6,2 %), va Uchqo'rg'on (6,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Chortoq (1,4 %) hamda Yangiqo‘rg‘on (1,5 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To‘raqo‘rg‘on tumani (2906,5 ming so‘m), Namangan shahrida (2179,6 ming so‘m), Namangan tumani (1885,7 ming so‘m), Uchqo‘rg‘on (1466,9 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1328,3 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Bu borada eng past ko‘rsatkich Yangiqo‘rg‘on (265,0 ming so‘m), Chortoq (267,5 ming so‘m), Norin (542,5 ming so‘m) va Kosonsoy (721,8 ming so‘m) tumanlarida ko‘rsatilmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| Viloyat | 1 328,3 | 695,6 |
| Namangan sh | 2 179,6 | 1 239,9 |
| To’raqo’rg’on | 2 906,5 | 767,1 |
| Mingbuloq | 1 473,5 | 549,0 |
| Uychi | 1 081,6 | 317,2 |
| Kosonsoy | 721,8 | 700,9 |
| Uchqo’rgo’n | 1 466,9 | 600,2 |
| Namangan | 1 885,7 | 1 390,2 |
| Chortoq | 267,5 | 241,4 |
| Norin | 593,0 | 141,9 |
| Chust | 873,3 | 614,2 |
| Pop | 542,5 | 364,5 |
| Yangiqo’rg’on | 265,0 | 260,5 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1553,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,7 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (70,8 %) va Uychi (66,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (11,1 %), Uchqo‘rg‘on (11,1 %), Norin (31,1 %) va Namangan (41,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**
*(2021- yil 1- may holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 6 898 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 2 635 tasi (faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,2 % i) Namangan shahriga, 541 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 521 tasi (7,6 %) Chust tumaniga, 513 tasi (7,4 %) Kosonsoy tumaniga, 504 tasi (7,3 %) Namangan tumaniga, 466 tasi (6,8 %) Toʻraqoʻrgʻon tumaniga toʻgri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda***  **Faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni, *birlikda***




2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 670 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 156 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 23,3 %) Namangan shahrida, 73 tasi (10,9 %) Norin tumanida, 61 tasi (9,1 %) Chust tumanida, 60 tasi (9,0 %) Toʻraqoʻrgʻon tumanida, 57 tasi (8,5 %) Kosonsoy tumanida hamda 54 tasi (8,1 %) Uychi tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2021- yil 1- may holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 635 ta), Uychi (541 ta), Chust (521 ta), Kosonsoy (513 ta), Namangan (504 ta), To`raqo`rg`on (466 ta) tumanlari qayd etildi.







2021- yilning 1-may holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (188 ta), Pop (276 ta), Chortoq (283 ta), Uchqo‘rg‘on (304 ta), Yangiqo‘rg‘on (313 ta) hamda Norin (354 ta) tumanlari qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo‘limi**
*Tel.: (69) 227-84-80*